ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-5

HUQUQSHUNOS O'ZBEK AYOLI

Toshkent davlat yuridik universiteti 2-bosqich talabasi
Bobomurodova Mohinur

Annatatsiya: ushbu maqolada ilk o'zbek huquqshunos ayoli Xadicha Sulaymonovaning hayot yo'li va ijodiy faoliyati tahlil etiladi. Shuningdek, bu shaxsning O'zbekiston huquq tizimi vujudga kelishida va rivojlanishidagi qo'shgan hissalari ko'rsatib o'tiladi.

Annatation: this article analyzes the life and creative work of the uzbek female lawyer, Khadicha Sulaymonova. It also highlights her contributions to the formation and development of the uzbek legal system.

Kalit so'zlar: huquqshunos, akademik, olima, jinoyat huquqi, mehribon ona.
Key words: lawyer, academic, scientist, criminal law, kind mother.

Ayol deganda kishi hayoliga turli xil qiyofalar shakillanishi shubhasiz. Ayol – bu mehribon ona, suyukli rafiqa, opa-singil va qiz bo'lishi mumkin. Ammo bu ayol bo'la olishi mumkin bo'lgan maqomlarning barchasi emas. Ayol, agar o'zi hohlasa, olamshumul marralarni egalashi mumkin. Bunday ayollar soni hozirgi kunda kam emas. Yaqin tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ham, o'z ustida ishlagan va havas qilsa arzigulik hayot yo'ini bosib o'tgan ayollar soni bir nechcha o'nlab topiladi. Ana shunday ayollardan biri akademik Xadicha Sulaymonova hisoblanadi.

Xadicha Sulaymonova 1913-yilning 3-iyul sanasida, Andijon shahrida ziyoli oilada tavallud topgan. Bolalik chog'lari qiyinchiliklar, iqtisodiy yetishmovchiliklarda o'tishiga qaramasdan, Xadicha Sulaymonova yoshligidan orzu qilgan kasbi, ya'ni huquqshunos bo'lish orzusidan qaytmasdan faqat oldinga harakat qildi. Xadicha Sulaymonova edigina 6 yoshqa to'lganida otasining vafoti butun oilaning ahvolini og'irlashtiradi. Otasining vafotidan so'ng, Xadicha Sulaymonovaning onasi bolalarining ilmli, ziyoli bo'lishlari uchun barcha qo'lidan kelgan ishlarni qiladi. O'sha kezlardagi og'ir sharoit, qatag'on siyosati kabi xalqni chinakamiga qiynayotgan bir paytda, Xadicha Sulaymonova o'z maqsadlari tomon yura oldi va jamiyatdagi adolatsizliklarga nuqta qo'yish niyatida huquqshunos bo'lishga ahd qiladi. 1931-yilda orzulari sari ilk qadamni qo'yib qahramonimiz Toshkent shahriga keladi. U yerda bir yillik tayyorlov kursini tamomlagach, Xadicha Sulaymonova huquq fakultetiga ikkinchi kursdan qabul qilinadi. O'qish yillaridanoq, u o'zining qiziquvchanligi, tirishqoqligi bilan professor o'qituvchilari tomonidan e'tirof etiladi. O'qishni tamomlagach, Xadicha Sulaymonova bir tuman sudida sudya sifatida ishboshlaydi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay, u Oliy sud sudyaligiga saylanadi va o'sha yerda mehnat faoliyatini davom etira boshlaydi. Xadicha Sulaymonova hayoti yillarida turli nufuzli va obro'li lavozimlarda faoliyat olib bordi. Ularga misol qilib keltiradigan bo'lsak,u Oliy sud sudyasi, O'zSSR adliya vaziri, O'zSSR ministorlar soveti huzuridagi yuridik komissiya raisi hamda O'zSSR oliy sudi raisi va shu kabi bir qator ham obro'li ham mashaqatli kasblarda ishladi va o'zining insonparvarligi va qattiyatliligi bilan har qanday vaziyatlarda adolatni taminlashga harakat qiladi.

Xadicha Sulaymonova huquqshunos bo'libgina qolmay balki, yurisprudensiya sohasidagi ilk olima ham edi. Sababi, aynan Xadicha Sulaymonova tomonidan jinoyat huquqiga oid birinchi o'zbek tilidagi darslik chop etiladi. Bundan tashqari, Xadicha Sulaymonovaning 80 dan ziyod ilmiy va ommabop risolalari shuningdek, 3 tomdan iborat "O'zbekiston sovet davlati va huquqi" nomli kitob

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

ham chop etiladi. Xadicha Sulaymonovaning O'zbekiston huquq tizimigaga qo'shgan hissasi juda katta. Xadicha Sulaymonova 1956-yilda Fanlar akademiyasining to'laqonli a'zosiga aylandi. O'sha yilning o'zida u yuksak unvon, akademik unvoniga, o'zbek ayollari orasidan birinchilardan bo'lib sazovor bo'ldi. Xadicha Sulaymonova bilimli, fidoyi kadr bo'libgina qolmay, o'z navbatida oilada rafiqa va mehribon ona ham edi. Xadicha Sulaymonova 1944-yilda prokuratura tizimida ishlovchi Bek Sherxo'jayevga turmushga chiqadi. Ushbu turmushdan 1945-yilda tug'ilgan Shavkat ismli o'g'il farzand dunyoga keladi. Taniqli shoira, bir paytning o'zida Xadicha Sulaymonovaning zamondoshlaridan, do'stlaridan biri hisoblangan Zulfiya ham Xadicha Sulaymonovaning istedodi, oilada sevimli yor va mehribon ona bo'lganligi haqida o'z xotiralarida takidlab o'tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xadicha Sulaymonova nafaqat bir ayol balki, bir huquqshunos bo'lishi mumkin bo'lgan, erishishni orzu qiladigan kasblarda ishladi va davlatning huhuq tizimini bunyood qilishda o'z hissasini qo'sha oldi. 43 yoshida akademik unvonini qo'lga kiritganligi ham, Xadicha Sulaymonovani naqadar bilimga chanqoq, tirishqoq va mehnatkash bo'lganligidan dalolat beradi. Akademik Xadicha Sulaymonovaning hayoti, kelgusida huquqshunos bo'lishni niyat qilgan nafaqat har bir qiz balki yigitlar uchun ham o'rnak bo'lsa arzigulik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1) Axmedov G'. Saidov. A. Xakimov. M. Xadicha Sulaymonova – huquqshunos, olima, davlat arbobi. T.:2023 B.214.
2) Tolipova.N. Tolipova. S. O'zbekning olima ayoli Xadicha Sulaymonova. T.:2023. B.27
3) Uch mashxur o'zbek ayoli. Toshkent -2022